

• PUDRAT SHARTHOMASI № _____

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Amudaryo tumani irrigatsiya bo'limi nomidan Nizomi asosida ish ko'ruvchi boshlig'i E.Yuldashev bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan “BUNYODKOR-JANUBIY SQB” MCHJ nomidan Nizomi asosida ish ko'ruvchi rahbari D.Yusupov ikkinchi tomondan pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TARIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

ijro xujjatlari — naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqli tug'risida yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ish chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitilgan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risida dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilishi tug'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi tug'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda kurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar; qurilish maydoni- mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma b o'yicha «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchiga» berilgan er uchastkasi.

Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yani bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi:

vaqtinchalik inshootlar- pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar:

berkitiladigan ishlar-sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lgan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar:

shartnoma narxini bo'lib chiqish-ishlarning xar bir bosqichi yoki turlar qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTOMA MAVZUSI

2. Pudrachi mazkur shartnoma shartlariga Oltin-yop” xujaliklararo kanalini tozalash (PK0+00 dan PK60+00 gacha) majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan tanlov savdosi (tanlov) natijasida aniqlangan tanlov komissiyasining qarori 20.12.2022 yilgi lot raqami № 208992-sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda 102820909,00 (bir yuz ikki million sakkiz yuz yigirma ming to'qqiz yuz qo'qqiz) so'mni tashkil etadi. QQS 13411422,91 (o'n uch million to'rt yuz o'n bir ming to'rt yuz yigirma ikki) so'm 91 tiyin.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta qo'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollarda bundan mustasno:

Qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan ko'p (fors-major) xolatlar sabab bo'lganda;

Ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

Ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda;

Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxdarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHI MAJBURIYATLARI.

6. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

Barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga ilovaga muvofik ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda inshootni buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofik topshirish;

Ilovaga muvofik qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

Qurilish maydoni xududida vantinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili tugrisida xabardor qilish;

Qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

Qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

Mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

Qurilish maydonini quriklanishini ta'minlash;

Mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi o'z kuchlari hamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI.

8. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga, ilovaga muvofik ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustida doimiy arxitektura qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish; Moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 2-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

Mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, 3 kun davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlarini ro'yxatini taqdim etish;

Mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

9. Shartnoma: milliy valyuta «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilinganda tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab;

keyinchalik EAV ga konvertatsiya qilgan xolda milliy valyutada «so'm» o'zaro hisob-kitob qilinganda shartnoma qonun xujjatlariga muvofik ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi;

10. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofik birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

11. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 20 kunni tashkil etadi.

12. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish 50-kun (jadvaligi muvofik) amalga oshiriladi.

VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

13. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu 32572590,00 so'mni tashkil etadi, qolgan 70%, ya'ni 760022710,00 so'mni mablag' esa ob'ektni moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvaliga asosan olib boriladi.

VIII. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MOJOR) XOLATLARI

14. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xollari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarilmaslik uchun javobgarlikdai ozod etiladilar.

15. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama qiladilar.

16. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

IX. QURILISHI TUGALLANGAN OB'EKTNI QABUL QILIB OLISH

17. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasigacha amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin shuningdek, qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

18. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 20 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

19. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Pudratchi tomonidan belgilangan tartibda ikki nusxada ijro xujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu xujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

20. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

X. KAFOLATLAR

21. Pudratchi: barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyixa xujjatlariga kamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofik barcha ishlarni bajarish sifatini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qullaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarini ko'rsatilgii sertifikatlashga.

davlat standartlariga hamda texnik shartlariga muvofikligini, ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni; ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

XI. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

22. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatlarning **bajarilmagan** qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50% dan oshmasligi lozim.

23. Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5% miqdorida penya to'laydi, bundi penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 %dan oshmasligi kerak.

24. Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

25. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish xujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u xolda Buyurtmachi «Davarxitekqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortish. shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 0,5 % miqdorida jarima undirish xuquqiga ega.

26. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashkari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan kilingan xarajatlarda, mol-mulkning yukotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan berilgan foidada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

27. Muddat o'tkazib yuborilgapanligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlaridan ozod qilmaydi.

28. Yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

XII. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI

29. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda, shuningdek, yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XIII. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

30. Xar bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan quyidagilarni kafolatlaydi: qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini; shartnoma tuzilishi va norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini. ularni berishga va'da qilinmaganligini; moddiy yoki harqanday turdagi imtiyoz olinmaganligini.

31. Taraflar ular tomonidan shartnoma doirasida jalbqilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi xarakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

32. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi xolatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga taziyya o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

33. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilish xaqli bo'ladi.

XIV. ALOXIDA SHARTLAR

34. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qatadi.

35. Ushbu shartnoma tuman "Gaznachilik" bo'linmasida ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab, moliya yili davri 2022 yil 31 dekabrgacha o'z kuchida qoladi.

36. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari normalari qo'llaniladi.

37. Shartnomaga kiritiladigan xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlarning yozma kelishuvi asosida talablarning muxri va imzosi bilan tasdiqlangan xujjat asosida bo'ladi.

38. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan (3 nusxada) tuzildi.

XVI. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«BUNYODKOR-JANUBIY SQB» ma'suliyati
cheklangan jamiyati

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani
Beruniy ko'chasi 95 uy

X.r: 20 208 000 904 587 714 002

Milliybankning To'rtko'l filiali

MFO: 00846 INN: 300295360

OKONX: 61110

OKED: 42210

«BUNYODKOR-JANUBIY SQB» MCHJ rahba:
D.Yusupov

Imzosi: _____

Muhr o'rni



Amudaryo tumani irrigatsiya bo'limi

Pochta manzil: Amudaryo tumani

OKED: 01613

Muloqot telefoni 61-515-45-25

G'az./h 23402000300100001010

Bank nomi: Markaziy bank Tashkent shahri

MFO: 00014 INN : 204678714

sh/h 100022860352047042402170001

Amudaryo g'azna bo'limi

(g'aznachilik bo'linmasi nomi)

Amudaryo tumani irrigatsiya bo'limi
rahbar:E.Yuldashev

Imzosi: _____

Muhr o'rni



-sonli shartnomaga

ILOVA

Korrupsiyaga qarshi qoidalarining

ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni (davlat organi yoki tashkilotning nomi) xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;

tovlamachilik qilish;

pora sifatida pul to'lash;

bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon (davlat organi yoki takshlotining nomi) xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni:

(davlat organi yoki takshlotining nomi) rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

Bajaruvchi:



(F.I.O.)

(imzo)



TOMONLAR:

(davlat organi yoki takshlotining lavozimi)



(imzo)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

LP5331754720

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **kanal tozalash**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Amudaryo tumani Irrigatsiya bo'limi tomonidan 23.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Amudaryo tumani
yuridik xizmat
ko'rsatish markazi
bosh yuristkonsulti:**



J.O.AVEZOV

23.12.2022



«ТАСДИҚЛАЙМАН»

Амударё тумани ирригация бўлими
бошлиғи Э.Юлдашев

2022 йил

Амударё тумани ирригация бўлими “Товар-моддий захиралар ва ишларни (хизматларни) харид қилиш бўйича танлов комиссияси”нинг энг яхши таклиф танлаб олиш бўйича ўтказилган 27-сонли мажлис баённомаси

2022-йил “13” декабр

Манғит шахри

Қатнашувчилар:

Комиссия раиси
Комиссия аъзолари

Э.Юлдашев
М.Уразбоев
М.Султамуратов
А.Шамуратов
Т.Аскаров
М.Қаландарова
Х.Ибрагимова

Амударё ТИБ бошлиғи
Сектор бошлиғи
Бош ҳисобчи
Сектор бошлиғи
Бош мутахассис
Кадрлар бўйича инспектор
Иш юритувчи котиба

КУН ТАРТИБИДА:

Амударё тумани ирригация бўлими - Танлов комиссияси раиси Э.Юлдашев йиғилишда танлов комиссиясининг 4 нафар аъзосидан 4 нафари катнашаётганлигини айтди, танлов комиссияси йиғилишини очик деб эълон қилди.

Танлов комиссияси котиби танлов комиссиясига қуйидаги маълумотларни тақдим қилди:

Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги 684-сонли “Давлат харидлари тўғрисида” ги Қонунининг (матнда кейинги ўринларда-Қонун) 58-моддасига мувофиқ энг яхши таклифларни танлаб олиш ўтказилиши тўғрисида махсус ахборот порталида (<http://dxarid.uzex.uz>) эълон танлаб олиш иштирокчиларининг қабул қилиш муддати якунланишидан 5 (беш) иш кунин олдин давлат буюртмачиси томонидан шахсий кабинет орқали жойлаштирилган 2022 йил 16 декабр куни № 208992-сонли лот бўйича 2022 йил 20 декабр кунги № 208992-сонли баённомаси бўйича ҳеч қандай шикоят келиб тушмади..

Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонуни талабларига ва юқорида кўрсатилган маълумотларни ҳисобга олиб Танлов комиссияси

ҚАРОР ҚИЛАДИ :

1. Амударё тумани ирригация бўлими Олтин-ёп” хужаликлараро каналини тозалаш (ПК0+00 дан ПК60+00 гача) ўтказилган танлаб олишда танлов хужжатларида ва танлов ва танлов шартлари бўйича энг яхши шартларни тақдим қилган ва танлов ғолиби деб топилган “БУНЁДКОР-КАРАКАЛПАКСТАН” МЧЖ 102820909,00 сўм (ҚҚС билан) шартнома тузилсин.

2. Ғолиб ташкилот танлов шартлари асосида шартнома тузишдан бош тортган ҳолатда шартнома тузиш ҳуқуқи кейинги қатнашди (резерв) қилиб, "KAMALADDIN-BENZODBEK" МСНҲ ҳамда "YANGIBOZORMAXSUSSUVPUDRAT" МСНҲ лар белгилансин. Бунда ғолиб иштирокчи таклиф этган суммасидан ошмаган миқдорда шартнома тузиш мумкинлиги белгилаб қўйилсин.

3. Қонун талабларига мувофиқ танлов иштирокчиларининг таклифларини кўриб чиқиш ва баҳолаш муддати таклифлар бериш якунланишидан 10 (ўн) кундан ошиб кетиши мумкин эмаслиги маълумот учун қабул қилинсин.

4. Ташкилот бош ҳисобчиси – М.Султамуратовга Танлов якуни бўйича ғолиб билан шартнома ҳужжатларини тайёрлаш ва шартнома тузилгандан сўнг 3 (уч) иш куни ичида махсус ахборот порталига (www.xarid.uz) жойлаштириш топширилсин.

5. Танлов комиссияси котиби Х.Ибрагимова, ушбу танлаб олишга тегишли барча ҳужжатларнинг белгиланган тартибда сақланишини таъминласин.

6. Бош ҳисобчиси М.Султамуратовга ушбу 2 (икки) иш куни ичида **Амударё тумани ирригация бўлими** балансидаги Олтин-ёп" ҳужаликлараро каналини тозалаш (ПК0+00 дан ПК60+00 гача) ишлари учун катнашувчилари томонидан ўтказилган танлаш натижалари бўйича бошқа пудратчи ташкилотлардан эътирозлар келиб тушмади, ғолиб ташкилот "БУНЁДКОР-КАРАКАЛПАКСТАН" МЧЖ деб топилди ва шу корхона билан шартнома тузилсин.

Амударё ТИБ бошлиғи

Сектор бошлиғи

Бош ҳисобчи

Сектор бошлиғи

Бош мутахассис

Кадрлар бўйича инспектор

Иш юритувчи котиба

Э.Юлдашев

М.Уразбоев

М.Султамуратов

А.Шамуратов

Т.Аскарлов

М.Қаландарова

Х.Ибрагимова

**208992 лот юзасидан шаклланган дастлабки
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилади.

Муҳокама тугаган сана:

23.12.2022 09:56

Комиссия раиси:

YULDASHEV ERGASH KADIROVICH